

HARAKATLI O'YIN VOSITALARI ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Dilyora Shoimova Rahmiddin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

70112201-Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari

nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 1-kurs magistranti

[*dilyora.shoimova.93@mail.ru*](mailto:dilyora.shoimova.93@mail.ru)

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakat sifatlarini rivojlantirishda harakatli o'yinlardan samarali foydalanish, kamharakatlilik, innovatsiya jadal rivojlanayotgan davrda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarini rivojlantirishda harakatli o'yinlarning o'rnini va ahamiyatini muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Gipokineziya, harakat faolligi, sun'iy intellekt, fiziologik, psixologik,

So'nggi yillarda ortib borayotgan maktab o'quv dasturiga qo'yiladigan talablar, o'zgargan turmush sharoiti **gipokineziya** – harakat faolligini pasayishiga sabab bo'lmoqda. Gipokineziya mushaklarning, ligamentlarning, suyak apparatlarining zaiflashishiga, zaif jismoniy rivojlanishga, asab tizimining disfunktsiyasiga olib keladi. Ushbu ta'sirga qarshi turishning yagona to'g'ri yo'li erta bolalikdan boshlab jismoniy tarbiyani to'g'ri tashkil etishdir.

Jismoniy madaniyatni o'rganishning asosiy vositasi - bu bolaning muhim asoslarini, ya'ni har bir inson uchun ob'ektiv zarur va majburiy bo'lgan jismoniy madaniyat darajasini, bola kelajakda nima qilishni xohlashidan qat'iy nazar, hayotda jismoniy sifatlarini bosqichma bosqich egallamay turib samarali natijaga erishib bo'lmashligini maktabgacha ta'lim va maktab davridanoq ongli ravishda tushunib borishlari lozim. Bunda eng mas'uliyatli vazifa albatta jismoniy tarbiya o'qituvchilari zimmasida bo'ladi.

Hozirgi sun'iy intellekt rivojlanib taraqqiy etayotgan bir davrda umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida sportga qiziqish past, o'rta maktablarda jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarga zerikarlilik tuyuladi va bunda qandaydir haqiqat bor. Zamonaviy darsda jismoniy madaniyat o'qituvchisi oldida juda ko'p vazifalar turibdi. Shunday ekan jismoniy tarbiya darsini zamonaviy, qiziqarli va motivatsion qilish uchun mo'ljallangan yangi uslublar, qiziqarli darslar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Jismoniy tarbiyani ilk bora dars sifatida ko'rayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarga to'g'ri tanlangan harakatli o'yinlar kelgusida :

- Jismoniy sifatlarining samarali oshishiga.

- Atrofidagilar bilan bemaol muluqot qila olishga.
- Tezkor fikrlash oldindan ko'ra bilish qobilyatining rivojlanishiga .
- Fiziologik hamda psixologik qobilyatlarini yuzaga chiqarishda.
- O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muomala vositasi sifatida ko'maklashishi .

Qolaversa to'g'ri tanlangan harakatli o'yinlar bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun motivatsiya bo'la oladi.

Harakatli o'yinlarni o'tkazishda avvalo o'quvchilarning yosh xususiyatlari , jinsi va fiziologik xususiyatlari inobatga olinadi Bundan tashqari o'yinlarni qayerda va qay holatda o'tkazilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiya darsini o'yin vaqti deb tushunishadi qolaversa butun kun davomida sinfxonasida dars qilgandan song toza havoga ularning tili bilan aytganda “ozodlikka “ chiqishni xoxlashadi shuning uchun harakatli oyinlarni ochiq havoda, bog'da, stadionlarda o'tkazishni tavsiya etardim” (Manners, 2003). Harakatli o'yinlar bizning O'zbekiston sharoitida yilning deyarli hamma faslida ochiq havoda o'tkazilish imkoniyati mavjud. Jismoniy mashqlar yopiq sharoitlarga nisbatan ochiq havoda o'tkazilsa bola organizmiga tasiri kuchliroq bo'ladi. Harakatli o'yinlarda kuzatuvlarga qaraganda obrazli, taqlidiy o'yinlarda bolalarning jismoniy fazilatlarini rivojlanib boradi , obrazlarga mahliyo bolgan bolalar fiziologiyasida tez charchash kuzatilmaydi , bazi murakkab harakatlarni ham bajarib yuborishadi . Natijada ular chaqqonlik, tezkorlik , chidamlilik kabi jismoniy sifatlar bosqichma bosqich rivojlanib boradi. Jahonga mashhur olim, tibbiyot ilmining buyuk namoyandalardan biri Abu Ali Ibn Sino tibbiyotda jismoniy mashq va harakatli o'yinlarning o'rni katta ekanligini asoslab, o'sha vaqtlardayoq o'yinlarning inson organizmiga foydalari haqida muhim va qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan . Masalan : u quyidagi o'yinlarni „Yoydan o'q otish”, „ Chovgon o'yinlari”, „Osilib o'ynash” „Nayza otish” va shunga o'xshash o'xshash o'yinlarni yozib qoldirgan . Vaqti vaqti bilan bolalar bilan birga o'ynagan . Abu Ali Ibn Sino : „ Inson hayotining har bir davri o'zining go'zalligiga ega . Bolalikning xususiyati esa o'yin” deya takidlagan.

O'z zamonida Hughes(2006,33) harakatli o'yinlarni 16 turga ajratgan; bu o'yinlar aynan 6 yoshda 11yoshgacha bo'lgan bolalar uchun saralab olingan . Harakatli o'yinlardan tanaffuz vaqtida , darslarda unumli foydalanilgan maktablarda jismoniy sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki harakatli o'yinlarni o'tkazish pedagogik jarayon o'yinni tanlay olish , o'quvchilar bilan hamkorlik ishlash nafaqat bolaning yosh xususiyatiga balki uning psixologiyasi , kayfiyati, jamoa bilan bo'lib o'ynay olish qobilyatlarini hisobga olgan holda o'yin tashkillashtirish lozim. SHundagina kutilgan natija harakat faoliyatlari shakllanishi, jismoniy sifatlar: chaqqonlik,

umumiy chidamlilik, tezlik, egiluvchanlik, kuch babilar bilan birgalikda muvozanatni saqlash qobiliyati ham rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva M. Bolalar o'yinlarida o'zaro munosabatlar. //Boshlang'ich ta'lim.- Toshkent,2000
2. Eğitimde oyunun yeri Sevil BURGAZ USKAN, Taner BOZKUŞ Bartın Üniversitesi, Spor Bilimleri Fakültesi, Bartın, TÜRKİYE E Posta: sevilburgaz@hotmail.com
3. Xo'jayev P. Harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi ./// Toshkent , 2010